

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

SHODIYEVA SHAXZODA MUSODILLA QIZI

**IKKILAMCHI XOMASHYO RESURSLARIDAN IP YIGIRISH
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va
xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Shodiyeva Shaxzoda Musodilla qizi Ikkilamchi xomashyo resurslaridan ip yigirish texnologiyasini takomillashtirish	3
Шодиева Шахзода Мусодилла кизи Совершенствование технологии прядения из вторичных сырьевых ресурсов	25
Shodiyeva Shaxzoda Musodilla qizi Improvement of spinning technology from secondary raw materials	49
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works	53

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

SHODIYEVA SHAXZODA MUSODILLA QIZI

IKKILAMCHI XOMASHYO RESURSLARIDAN IP YIGIRISH
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va
xomashyoga dastlabki ishlov berish

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/T5985 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.titli.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Matismailov Saypilla Lolashbayevich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Usmanov Xayrulla Saydullayevich
texnika fanlari doktori, professor

Erkinov Zokirjon Erkin o'g'li
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/2025.27.12.T.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil "30" aprel soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100100, Toshkent sh., Shohjaxon-5, 1-bino, 222-xona. Tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17; e-mail: titlp.info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (292- raqam bilan ro'yhatga olingan). Manzil:100100, Toshkent sh., Shohjaxon ko'chasi - 5. Tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "14" aprel kuni tarqatildi.
(2026-yil "14" aprel №292- raqamli reyestr bayonnomasi).



X.H.Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z.Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

SH.SH.Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda to‘qimachilik va yangi sanoat mahsulotlari turlari kengayib, yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Jahonda to‘qimachilik sanoatining texnologik chiqindilari va ikkilamchi xomashyo resurslari jami qayta ishlanayotgan to‘qimachilik xomashyosining qariyb 25 foizini tashkil etadi. Jahon bozorida tiklangan tolalardan tayyorlangan ip va ip mahsulotlariga bo‘lgan talab hamda raqobatning ortib borishi ishlab chiqarishda zamonaviy va takomillashgan texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. AQSH, Germaniya, Fransiya, Italiya, Xitoy, Rossiya kabi rivojlangan davlatlarda tiklangan tolalardan sifatli ip ishlab chiqarishda sezilarli natijalarga erishilgan bo‘lib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda mahsulot raqobatbardoshligini ta‘minlash uchun texnologik jarayonlarni boshqarish va takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda ikkilamchi xomashyo resurslaridan tiklangan tolalar asosida ip ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda zamonaviy texnologik mashinalarning yangi ilmiy-texnik yechimlarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, ikkilamchi xomashyo resurslaridan ip yigirish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar ustivor ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, tiklangan tolalarni qayta ishlash jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish, texnologik jarayonlar samaradorligini oshirish hamda ularni kimyoviy tolalar bilan aralashtirish orqali yuqori sifat ko‘rsatkichlariga ega ip ishlab chiqarish usullarini yaratishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash hamda tayyor kiyim-kechak ishlab chiqarish hajmining yildan yilga ortib borishi natijasida to‘qimachilik sanoatida katta miqdorda ikkilamchi xomashyo resurslari hosil bo‘lmoqda. “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda respublikada 540 ming tonna trikotaj polotnosi ishlab chiqarilgan. Trikotaj matolarini tikuvchilik korxonalarida bichish jarayonida o‘rtacha 20 foizgacha chiqindi ajralishini hisobga olganda, ularning yillik hajmi 100 ming tonnadan ortiqni tashkil etishi mumkin. Bu juda katta zahira bo‘lib, ulardan to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish dolzarb masala hisoblanadi. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulishini oshirish, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga ko‘paytirish...” kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish jarayonida aralash tolali iplardan olinadigan matolarning sifatini oshirish, ularni qayta ishlashda uzilishlar sonini kamaytirish hamda yangi turdagi mahsulot assortimentlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-maydagi PF-5989-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

to'g'risida"gi, 2024-yil 1-maydagi PF-71-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2025-yil 16-yanvardagi PF-6-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. "Energetika, energiya resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Jahonda to'qimachilik chiqindilarini qayta ishlash, ularni tola ajratish jarayonini nazariy asoslash va ikkilamchi xomashyo resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha xorijiy olimlardan N.Darula, L.A.Bathil, V.Vilfohorst, H.J.Hunakus, V.Ye.Gusev, N.A.Lebedev, V.D.Frolov, D.N.Saprikin, A.G.Gorkova, A.P.Bashkov, F.G.Kaxramanov, O.N.Moroz, A.G.Pechnikova, I.A.Chiberyak, S.P.Shvedskiy, V.Ya.Kalashnik, S.M.Kabanov, A.F.Plexanov va boshqalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilib, to'qimachilik chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasi va texnikasini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shganlar.

O'zbekistonda to'qimachilik ikkilamchi xomashyo resurslaridan samarali foydalanish, tolali chiqindilarni qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha H.A. Alimova, E.T. Maqsudov, R.Z. Burnashev, Q.G'. G'afurov, Q. Jumaniyazov, S.L. Matismoilov, A.E. Gulamov, A.P. Pirmatov, I.R. Azizov, M.Sh. Xoliyarov, M.T. Shamuratov, Sh.F. Maxkamova va boshqalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Shu bilan birga, ikkilamchi xomashyoni yigirishga tayyorlash, tiklangan tolalardan ip yigirishda zamonaviy uskunalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda ipning raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha tadqiqotlar deyarli olib borilmaganligi aniqlangan. Shularni inobatga olib, ikkilamchi xomashyo – trikotaj qiyqimlaridan sifatli tiklangan tola va ip xossalarini yaxshilash, resurs tejamkor ip yigirish texnologiyasini takomillashtirishga qaratilgan dissertatsiya mavzusini tanlash asoslandi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasini ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to'qimachilik va yengil sanoati instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 28/2025 "Ikkilamchi xom ashyo resurslaridan tiklangan tolalardan pnevmomexanik ip ishlab chiqarish texnologiyasi tadqiqoti" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi to'qimachilik ikkilamchi xomashyo resurlari - trikotaj qiyqimlaridan ip yigirish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

trikotaj qiyqimlarini kesishning o'zgaruvchan rejimga asoslangan texnologiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshiruvchi mashinaning konstruksiyasini takomillashtirish;

kesilgan trikotaj qiyqimlarini tolalarga ajratuvchi mashinaning ta'minlovchi silindrlarini qayishqoq element asosida takomillashtirish;

trikotaj qiyqimlaridan tola ajratish jarayonida ta'minlash silindrlari va qiyqimlar orasidagi ishqalanish kuchini nazariy asoslash;

tiklangan tolalarning shtapel uzunligini chimdib titish mashinasining texnologik parametrlariga bog'liqligini matematik modelini olish;

tiklangan tolalardan takomillashtirilgan yigirish texnologiyasida ip ishlab chiqarish va uning xossalarini tadqiq etish;

Tadqiqotning obyekti sifatida trikotaj qiyqimlari, chigallangan ip, qiyqimlarni kesish mashinasi, chimdib tituvchi mashina, tiklangan tola, tiklangan tolalardan yigirilgan ip va ularning sifatini aniqlashdagi priborlar olingan.

Tadqiqotning predmeti tikuvchilik trikotaj qiyqimlarini kesish jarayoni, qiyqimlar va chigallangan iplarni titish jarayoni, tiklangan tolalar xossalari, tiklangan tolalardan yigirilgan ip xossalari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida oliy matematika va nazariy mexanika qonun-qoidalari, iplar mexanikasi, to'la omilli tajriba, regression model qurish, sinov natijalarini baholash, solishtirish usullari, matematik statistika va hisoblash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

trikotaj qiyqimlarini kesish va ularni chimdib titish mashinasida tolalarga ajratishning o'zgaruvchan rejimga asoslangan texnologiyasi ishlab chiqilgan hamda ushbu texnologiyani amalga oshiruvchi mashina konstruksiyasi takomillashtirilgan;

chimdib titish jarayonida qiyqim va qayishqoq elementli ta'minlovchi silindrlar orasidagi ishqalanish kuchini aniqlashning matematik ifodasi siquvchi silindrlar umumlashgan massasi, radiuslari, rezinali vtulka va qiyqim bikrliklarini inobatga olib ishlab chiqilgan;

tavsiya etilgan qiyqimlarni titib tiklangan tolalarni olish texnologiyasida baraban arra tishlari iplarni olib ketish shartini analitik ifodasi ularning massasi, texnologik qarshiligi, baraban burchak tezligi hamda ishqalanish kuchining o'zgarishini inobatga olib aniqlangan, bog'lanish qonuniyatlari olingan va parametrlarni tavsiya qiymatlari asoslangan;

qiyqimlardan tola ajratish jarayonida ta'minlovchi silindr va qiyqimlar orasidagi ishqalanish kuchini matematik modellarini tahlili asosida titish samaradorligini ratsional qiymatlari aniqlangan;

trikotaj qiyqimlarini kesuvchi va tolalarga ajratuvchi mashinaning konstruksiyasini o'zgartirish hamda piltalash o'timini qisqartirish asosida yigirish texnologiyasi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

trikotaj qiyqimlarini kesish mashinasining konstruktiv va dinamik parametrlarini yaxshilanishi hisobiga qiyqimlarni ko'ndalang kesish samaradorligini oshirish ta'minlangan;

trikotaj qiyqimlarini qayta ishlash jarayonida tiklangan tolalar uzunligining barqarorligini ta'minlovchi mashinaning ratsional parametrlari ishlab chiqilgan;

ikkilamchi xomashyo resurslari xususan, trikotaj qiyqimlari va to‘qimachilik tolali chiqindilar asosida qisqa yigirish texnologiyasida eksperimental tadqiqotlar o‘tkazilgan;

trikotaj qiyqimlari va chigallangan iplardan tiklangan tolalar asosida qisqa yigirish texnologiyasida pnevmomexanik ip ishlab chiqarish natijasida xomashyo tejalgan va uning tannarxi kamaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy va tajribaviy tadqiqot natijalarining mosligi, aprotatsiya shuningdek, natijalarni solishtirish, baholash mezonlariga ko‘ra adekvatligiga, o‘tkazilgan tadqiqotlarning ijobiy natijalari va ularning ko‘rib chiqilgan fan sohasidagi ma‘lumotlar bilan qiyosiy tahliliga ko‘ra asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati rezina amortizatorli kesish mashinasining takomillashtirilgan konstruksiyasida trikotaj qiyqimlarini yanada bir tekis kesishi, qayta ishlash jarayonida titilmagan mato bo‘laklari va ip qoldiqlari miqdorining kamayishini ta‘minlashi hamda kesuvchi mashinaning konstruktiv va dinamik parametrlarini muqobillash asosida kesish jarayonining samaradorligini oshirishga erishilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati trikotaj qiyqimlarini tolalarga ajratishni o‘zgaruvchan rejimga asoslangan samarali takomillashtirilgan texnologiyasi ishlab chiqilganligi, arrali tishlarining qiyqim iplarini ilib olib ketish sharti aniqlanganligi, ishchi organlar texnologik va konstruktiv parametrlari asoslanganligi natijasida qiyqimlarni tolalarga ajratish samaradorligi 15,3% oshganligi, shuningdek, tiklangan tolalardan takomillashtirilgan qisqa yigirish texnologiyasi asosida chiziqiy zichligi 50 teks OE ipi ishlab chiqarilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tikuvchilik trikotaj qiyqimlari va chigallangan iplardan tola tiklash va ip yigirish texnologiyasini takomillashtirish natijasida ishlab chiqarish sharoitida o‘tkazilgan tajriba natijalari asosida:

tikuvchilik qiyqimlari va chigallangan iplardan tola tiklash samaradorligini oshirish uchun kesish mashinasining yangi takomillashtirilgan konstruksiyasiga O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligining ixtiro patenti (IAP 8165, To‘qimachilik chiqindilarini kesish qurilmasi” 22.07.2025 y) olingan. Natijada qiyqimlarni uzluksiz uzatish va ularni bo‘ylamasiga va ko‘ndalangiga kesish samaradorligiga erishilgan;

trikotaj qiyqimlaridan tiklangan tolalardan takomillashtirilgan qisqa ip yigirish usulida chiziqiy zichligi 50 teksli pnevmomexanik ip ishlab chiqarish “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tasarrufidagi korxonalarda, shu jumladan, “Uztex Tashkent” MChJ va “Uzyarn House Textile” MChJ korxonalarida (“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2025-yil “03” dekabr №02/06-2822- sonli ma‘lumotnomasi) joriy etilgan. Tiklangan tolalardan qisqa ip yigirish texnologiyasini joriy etish hisobiga elektr energiyasi hajmini kamaytirishga hamda mashina unumdorligini oshirishga erishilgan. Natijada tiklangan tolaning chiqishi 11,9% ga ortishiga, tiklangan tolalardan yigirilgan ipning uzish kuchi (R_{km}) 11,85% ga,

uzilishdagi uzayishi 18,65% ga oshishiga, ipning uzish kuchi bo'yicha notekisligi (CV) 5,8% ga, uzayishi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti 23,85% ga kamayishiga, ipning pishiqligi 34,7 % ga yaxshilanishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari bo'yicha 11 ta, shu jumladan, 4 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan hamda O'zbekiston Respublikasining 2 ta patenti olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 110 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari tavsiflangan, uning obyekti, predmeti va usullari anislangan, tadqiqot ishining Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Ikkilamchi xom ashyodan tola tiklash va ip ishlab chiqarish muammolari”** deb nomlangan birinchi bobida ikkilamchi xomashyo resurslari xususan, to'qimachilik tolali chiqindilari, tikuvchilik mato va trikotaj qiyqimlarini qayta ishlash hamda ip yigirish texnika va texnologiyasiga oid ilmiy manbalarni o'rganish natijasida ikkilamchi xom ashyo resurslarining tasnifi, tikuvchilik qiyqimlarini kesuvchi mashinalar, tikuvchilik trikotaj qiyqimlaridan tiklangan tola olish hamda ulardan turli to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilingan.

Ilmiy manbalar tahlili natijasida tolali chiqindilarni qayta ishlash jarayonlari asosan texnika va texnologiyani takomillashtirish, tikuvchilik qiyqimlarini kesish jarayonida tasmasimon qiyqim bo'lakchalari hosil bo'lishi, tikuvchilik qiyqimlaridan tiklangan tola olishda qo'llaniladigan chimdib titish mashinalarining ishlash parametrlarini asoslash hamda nuqson hisoblangan ip va qiyqim bo'lakchalari miqdorini kamaytirish, tiklangan tola chiqishini oshirish va ularning ip sifatiga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha olib borilmaganligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Qiyqimlarni kesuvchi va chimdib tituvchi mashina ishchi organlari konstruksiyalarini takomillashtirish va parametrlarini asoslash”** deb nomlangan ikkinchi bobida qiyqimlarni kesish mashinasining tola tiklash samaradorligiga ta'siri, tikuvchilik qiyqimlarini takomillashtirilgan kesish

mashinasining tuzilishi va ishlasi, chimdib tituvchi mashinada qayishqoq elementli ta'minlovchi silindrni qo'llash asosida titish jarayonining nazariy tadqiqotlari, mashinaning ta'minlash zonasida riflyali silindrlar va qiyqimlar orasidagi ishqalanish kuchini aniqlash, qiyqimlarni chimdib titish jarayonida arrali baraban tishlari yordamida qiyqim iplarini ajratish shartlari, qiyqimlarni chimdib tituvchi mashina arrali baraban radiusining asosiy texnologik va konstruktiv parametrlarga bog'liqligi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Tikuvchilik qiyqimlarini tolalarga ajratish va tiklangan tola olish texnologiyasi mashinalari tarkibiga kiruvchi kesish mashinasining yangi konstruksiyasi ishlab chiqilgan. Ushbu konstruksiya ikkita arrali valikni qo'shish va rotorning o'zgaruvchan burchak tezlikda aylanishini ta'minlash orqali takomillashtirilgan. Takomillashtirilgan kesish mashinasining texnologik sxemasi 1-rasmda keltirilgan (patent IAP 8165).



1-rasm. Takomillashtirilgan rotasion kesuvchi mashinaning texnologik sxemasi

1-ta'minlovchi transportyor, 2- cho'zuvchi pribor, 3- ta'minlash stolcha, 4,5- rostlovchi vintlar, 6- stoyka, 7- qo'zg'almas pichoq, 8-T-simon profil, 9,10-rostlovchi vintlar, 11- qo'zg'aluvchi pichoq, 12- flanes, 14- stakan, 16- tayanch truba, 17- vint, 18- tortma, 19- val, 33-transportyor, 34-kesuvchi valik.

Mashina (1-rasm) ta'minlovchi transportyor 1 va uning ortida joylashgan ikkita kesuvchi valik 34 mavjud bo'lib, ularda bir-biriga nisbatan teskari aylanuvchi disksimon pichoqlar 35 mahkamlangan (2-rasm). Disksimon pichoqlar 35 valik 34 o'rnatilgan valdan iborat bo'lib, pichoqlar oralari to'rt qavatli prokladka 36 lardan tashkil topgan.



2-rasm. Aylanuvchi disksimon pichoqlar
35-disksimon pichoq, 36-kompozit rezina vtulkalar.


Trikotaj qiyqimlari ta'minlovchi transportyor 1 orqali harakatlanadi va undan chiqishda kesuvchi valiklar 34 zonasiga tushadi. Disksimon pichoq 35 qiyqimlarni

bo‘ylamasiga tasmasimon qilib kesadi. Tasmalarning eni valik 34 ning disksimon pichoqlari 35 orasidagi qadamga teng. Hosil bo‘lgan tasma ko‘rinishidagi qiyqimlar cho‘zuvchi pribor 2 yordamida texnologik oqim bo‘ylab bir tekisda uzatiladi.


Trikotaj qiyqimlaridan olinadigan tolalarning fizik-mexanik xossalari va ularning titilganlik darajasi asosan chimdib titish mashinalarining ishlash samaradorligiga, xususan, qiyqimlardan tola tiklash jarayoniga bog‘liqdir. Qiyqimlarni chimdib titish mashinalarida tola tiklash jarayoni ta‘minlovchi transportyor orqali uzluksiz uzatilayotgan trikotaj qiyqimlarini ikkita ta‘minlovchi riflyali silindrlar yordamida tituvchi barabanga uzatadi hamda arra tishli garnaturalarning mexanik ta‘siri natijasida titilib, alohida tolalarga ajratiladi. Chimdib titish mashinasining ta‘minlash zonasi konstruksiyasi tikuvchilik qiyqimlaridan tolani qayta tiklash jarayonining samaradorligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Qiyqimlarni ta‘minlash zonasida barqaror ushlab turish darajasi va ularning samarali titilishi (tolalarga ajralishi) sifati ushbu zonaning konstruksiyasiga bevosita bog‘liqdir.

Qiyqimlarni ishchi zonaga bir tekis uzatish va titish jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida tarkibli qayishqoq elementli ta‘minlovchi riflyali silindrlarning takomillashtirilgan konstruktiv sxemasi ishlab chiqildi (3-rasm).

Tavsiya etilayotgan tarkibli yuklanuvchan silindr riflyali qismi 1, val 2 hamda ular orasida joylashgan qayishqoq element – rezinali vtulka 3 dan tashkil topgan. Mos ravishda pastki tarkibli silindr riflyali qismi 4, o‘q 5 va rezinali vtulka 6 dan iborat. Yuqoridagi silindr riflyali qismi 1 qiyqimlarga P_s – siquvchi kuch bilan ta‘sir qiladi. Ushbu konstruksiyada qiyqimlarning 7 zichligi (qalinligi) o‘zgarganda mos silindrlarning tegishli elementlari va rezinali vtulkalari 3 deformatsiyalanadi, bu esa qiyqimning muvozanatini saqlaydi hamda tolalarni samarali titish rejimini ta‘minlaydi. Titish mashinasining ta‘minlash zonasida tarkibli riflyali silindrlar va qiyqim orasidagi ishqalanish kuchini aniqlashning hisobiy sxemasi va matematik modeli 4-rasmda keltirilgan.



3-rasm. Chimdib tituvchi mashina ta‘minlash zonasidagi tarkibli qayishqoq elementli ta‘minlovchi riflyali silindrlarning takomillashtirilgan sxemasi



4-rasm. Tarkibli riflyali silindrlar va qiyqim orasidagi ishqalanish kuchini aniqlash uchun hisoblash sxemasi

Qiyqimlarni ishchi zonaga uzatish jarayonida ta'minlovchi tarkibli riflyali silindrlar bilan qiyqimlar orasida yetarlicha ishqalanish hosil bo'lishi talab etiladi va bunda ajratuvchi kuch har doim ishqalanish kuchidan kichik bo'lishi kerak. Mazkur shart qiyqimlarning ishchi zonaga barqaror va uzluksiz uzatilishini ta'minlaydi.

$$F_{ish} > F_{ajr} \quad (1)$$

Shuning uchun ishqalanish kuchini aniqlash muhim hisoblanadi. Hisoblash sxemasiga ko'ra (4-rasm) ishqalanish kuchi F_{ish} asosan siquvchi kuch P_s , tarkibli riflyali silindrlar massasi, ularning geometrik o'lchamlari, rezinali vtulkalar bikrligi va markazdan qochma kuchni inobatga oluvchi tiklanish kuchlariga, qiyqimlarning hususiyatlari (ularning deformatsiyalanishiga) hamda silindrlarning bo'rchak tezliklariga bog'liq bo'ladi.

Qiyqimlarning yuqoridagi siquvchi va pastki tarkibli riflyali silindrlar bilan o'zaro ta'sirida qayishqoq elementlar bikirligini tiklovchi kuchlarning muvozanati quyidagicha bo'ladi. Shu bilan birga, vertikal o'q bo'ylab kuchlarning muvozanati shartiga ko'ra:

$$P_s + (m_v + m_{r.v1} + m_1) \cdot (g + \omega_1^2 R_1) + (m_o' + m_{r.v2} + m_2) \cdot (\omega_2^2 R_2 - g) = \Delta_1 C_q + \Delta_1^1 C_{r1} + \Delta_2 C_q + \Delta_2^1 C_{r2} \quad (2)$$

Bu yerda, P_s - siquvchi kuch; $m_v, m_{r.v1}, m_{r.v2}, m_o', m_1, m_2$ - riflyali silindrlarning o'qi va vali, rezinali vtulkalarni hamda riflyali qismi massalari; g - erkin tushish tezlanishi; R_1, R_2 - silindrlar radiuslari, ω_1, ω_2 silindrlar burchak tezliklari; Δ_1, Δ_2 - mos qiyqimni silindrlar ta'siridagi deformatsiyalari; Δ_1^1, Δ_2^1 - rezinali vtulkalar deformatsiya qiymatlari; C_{r1}, C_{r2} - rezinali vtulkalarning bikrlilik koeffitsiyentlari; C_q - qiyqimning bikrlilik koeffitsiyenti.

Mos ravishda hisoblash sxemasiga asosan; $\Delta O_1 A_1 B_1$ va $\Delta O_2 A_2 B_2$ lardan:

$$R_1^2 = C_1 B_1^2 + O_1 C_1^2; \quad R_2^2 = C_2 B_2^2 + O_2 C_2^2 \quad (3)$$

Shuningdek, $\Delta O_1 C_1 B_1$ va $\Delta O_2 C_2 B_2$ dan;

$$\cos \varphi_1 = \frac{R_1 - \Delta_1}{R_1}; \quad \cos \varphi_2 = \frac{R_2 - \Delta_2}{R_2} \quad (4)$$

Bunda; Δ_1 va Δ_2 lar

$$\Delta_1 = R_1(1 - \cos \varphi_1); \quad \Delta_2 = R_2(1 - \cos \varphi_2) \quad (5)$$

Olingan (5) ni inobatga olib (2) dan riflyali silindrlarni siquvchi kuchini hisoblash ifodasini hosil qilamiz;

$$R_s = C_q [R_1(1 - \cos \varphi_1) + R_2(1 - \cos \varphi_2)] + \Delta_1^1 C_{r1} + \Delta_2^1 C_{r2} - (m_o' + m_{r1} + m_1) (g + \omega_1^2 R_1) - (m_o' + m_{r2} + m_2) (\omega_2^2 R_2 - g) \quad (6)$$

Amonton-Kulon qonuniga asosan qayishqoq elementli tarkibli riflyali ta'minlovchi silindrlar bilan qiyqim orasidagi ishqalanish kuchi:


$$F_{ish} = F_1 + F_2 = f P_s \quad (7)$$

Olingan (6) ni o'rniga qo'yib ishqalanish kuchini hisoblash ifodasi hosil qilindi:

$$F_{ish} = f C_q [R_1(1 - \cos \varphi_1) + R_2(1 - \cos \varphi_2)] + \Delta_1^1 C_{r1} + \Delta_2^1 C_{r2} - (m_v + m_{r1} + m_1) (g + \omega_1^2 R_1) - (m_o' + m_{r2} + m_2) (\omega_2^2 R_2 - g) \quad (8)$$

Mashining ta'minlash zonasida qiyqimlar va tarkibli riflyali silindrlar orasidagi ishqalanish kuchini hisoblash formulasi olindi. Ishqalanish kuchining qayishqoq elementlar bikrligi, deformatsiya kattaligi, silindrlar massasi va radiusiga bog'liqligi tahlil qilindi.

Masalani matematik sonli yechimi va natijalar tahlili asosida taklif etilayotgan qayishqoq elementli tarkibli riflyali ta'minlovchi silindrlar va qiyqimlar orasidagi ishqalanish kuchining konstruksiya parametrlari o'zgarishiga bog'liqlik grafiklari qurilgan (5-rasm).




5-rasm. Tarkibli ta'minlovchi silindrlar va qiyqim orasidagi ishqalanish kuchining siquvchi silindr umumlashgan massasiga a), rezinali vtulka va qiyqimlar bikrligiga b) va ularning radiuslarini v) o'zgarishiga bog'liqlik grafiklari

Qurilgan grafiklar tahlili asosida qiyqimlarning silindrlar bilan samarali o'zaro ta'siri va barqaror tola ajratish rejimini ta'minlaydigan parametrlarning maqbul qiymatlari aniqlandi. Chimdib titish jarayonida qiyqim va ta'minlovchi silindrlar orasidagi ishqalanish kuchining siquvchi silindrning umumiy massasiga bog'liqligi tadqiq etildi. Tolalarni ajratish jarayonining barqaror kechishi uchun ishqalanish kuchi ajratish kuchidan katta bo'lishi lozim. Shu sababli zarur ishqalanish kuchini ta'minlash maqsadida siquvchi silindrning muqobil umumiy massasini 3,2–3,35 kg oralig'ida tanlanish maqbul texnologik yechim ekanligi aniqlandi.

Nazariy tadqiqotlar natijasida ta'minlovchi silindr bilan qiyqim orasidagi ishqalanish kuchining silindrning rezinali vtulkasi va qiyqim bikrligiga bog'liqlik qonuniyati aniqlangan. Ta'minlash zonasida zarur ishqalanish kuchini ta'minlash uchun rezinali vtulka bikrligining tavsiya etilgan qiymatlari $C_{r.v.} = (180 \div 200) \cdot 10^3 \text{ N/m}$, qiyqim bikrligi esa $C_{qiy} = (120 \div 140) \cdot 10^3 \text{ N/m}$ oralig'ida bo'lishi lozim. Chimdib titish jarayonida ta'minlovchi silindrlar bilan qiyqim orasidagi ishqalanish kuchining silindrlar radiuslarining o'zgarishiga bog'liqlik grafiklari qurildi. Tahlil natijalariga ko'ra silindrlar radiuslari teng bo'lganda ishqalanish kuchi

maksimal qiymatga ega bo'lib, $3,09 \cdot 10 \text{ N}$ gacha ortishi aniqlandi. Bunda qiyqimlar deformatsiyalanishida har ikkala riflyali silindrlarning ta'sir zonasi oshadi. Shu sababli ishqalanish kuchini oshirish va jarayon barqarorligini ta'minlash maqsadida silindrlar radiusining tavsiya etilgan qiymati $R_1 = R_2 = R = (3,5-4,1) \cdot 10^{-2} \text{ m}$ oralig'ida tanlanishi maqsadga muvofiqdir. Chimdib titish mashinasida qiyqimlar o'zaro qarama-qarshi yo'nalishda aylanuvchi ikkita riflyali silindr orqali arrali barabanga uzatiladi. Arrali baraban tishlari qiyqim iplarini (tolalarini) ilib olib, ularni asosiy qiyqim massasidan ajratadi. Arrali baraban tishlari tomonidan ilib olingan qiyqim iplarining tish sirtidagi muvozanat shartlarini aniqlash maqsadida 6-rasmda mazkur jarayonni aks ettiruvchi hisoblash sxemasi keltirilgan.




6-rasm. Qiyqimlarni chimdib titish mashinasi arrali baraban tishlari ilib olgan iplarni olib ketish shartini aniqlash bo'yicha hisob sxemasi

Qiyqimlarni chimdib tituvchi mashinasi arrali barabani tishlari bilan qiyqim iplarini ilib, olib ketish shartiga asosan ishchi baraban radiusini hisoblash formulasi aniqlangan.

$$R_{\zeta} = \frac{m_q g (f \cos \alpha - \sin \alpha) + F_{\zeta} (f \cos \beta - \sin \beta)}{m_q \omega_{\zeta}^2 (f \sin \alpha + \cos \alpha)} \quad (9)$$

Qiyqimlarni chimdib tituvchi mashina baraban radiusini hisoblash formulasiga asosan arrali baraban radiusining parametrlarga bog‘liqligi aniqlangan. 7-rasmda chimdib tituvchi mashina ishchi barabani radiusi o‘zgarishini texnologik qarshiligiga *a)* va titish jarayonida qiyqimlardan ajratib olingan iplarni massasini *b)* o‘zgarishiga bog‘liqlik grafiklari keltirilgan.

Tajriba natijalariga ko‘ra qiyqimlardan iplarni ajratish jarayonida ularning massalari $(15 \div 20) \cdot 10^{-3} \text{ kg}$ oralig‘ida bo‘lganda, ajratish kuchi $(4,2 \div 4,6) \text{ N}$ dan oshmasligini ta‘minlash uchun arrali baraban tashqi aylanish radiusi $(0,34 \div 0,35) \text{ m}$ oralig‘ida tanlanishi maqsadga muvofiqligi aniqlandi. Qiyqimlardan ajratilgan iplarning o‘rtacha massalarini barqaror saqlash va titish jarayonining samaradorligini oshirish uchun arrali baraban radiusi R qiymati $0,35 \text{ m}$ dan oshmasligi tavsiya etiladi.




7-rasm. Chimdib tituvchi mashina ishchi barabani radiusining o‘zgarishini texnologik qarshiligiga *a)* va qiyqimlardan ajratib olingan iplarni keltirilgan massalari *b)* o‘zgarishiga bog‘liqlik grafiklari

Qiyqimlarni titib tolalarga ajratish jarayoni ko‘p jihatdan arrali baraban burchak tezligining o‘zgarishiga bog‘liqdir. Qiyqimlardan tolalarni ajratishda chimdib tituvchi mashina arrali baraban radiusi o‘zgarishi uning burchak tezligiga bog‘liqlik qonuniylari aniqlangan. 8-rasmda chimdib tituvchi mashina arrali barabani radiusining *a)* burchak tezligi o‘zgarishiga va *b)* titilayotgan qiyqim iplari bilan arratishli sirti orasidagi ishqalanish koeffitsientiga bog‘liqligini aks ettiruvchi grafiklar keltirilgan.

O‘tkazilgan tahlillar natijasida qiyqimlarni titish jarayonida ishchi baraban burchak tezligi $6,2 \cdot 10 \text{ s}^{-1}$ dan $7,3 \cdot 10 \text{ s}^{-1}$ gacha oshganida va baraban tishlarining ichki og‘ish burchagi $\alpha = 30^\circ$ da uning radiusi $0,48 \text{ m}$ dan $0,325 \text{ m}$ gacha chiziqli bo‘lmagan bog‘lanishda kamayishi aniqlangan (8-a) rasm, 1-grafik). Shuningdek, baraban tishlarining ichki og‘ish burchagi 10° gacha kamayib borishi jarayonida baraban radiusi $0,371 \text{ m}$ dan $0,34 \text{ m}$ gacha nochiziqli bog‘lanishda pasayadi

(8-a) rasm, 3-grafik). Demak, arrali baraban radiusi 0,35 m dan oshmasligini ta'minlash maqsadida uning burchak tezligi $(6,7 + 6,9) \cdot 10 \text{ s}^{-1}$ oralig'ida tanlanishi maqsadga muvofiqdir.



8-rasm. Chimdib tituvchi mashina arrali barabani radiusi o'zgarishini uning burchak tezligini a) o'zgarishiga va titilayotgan qiyqim iplari bilan arra tishli sirti orasidagi ishqalanish koeffitsientiga b) bog'liqlik grafiklari


Qurilgan grafik bog'lanishlari tahliliga asosan ajratilgan iplarning baraban tishlari bilan ishqalanish koeffitsiyenti 0,18 dan 0,30 gacha oshganda va $\omega_b = 75 \text{ s}^{-1}$ bo'lganida, baraban radiusi 0,35 m dan 0,327 m gacha chiziqli bo'lmagan qonuniyatda kamayadi. Shuningdek, $\omega_b = 65 \text{ s}^{-1}$ bo'lganda esa, arrali baraban radiusi 0,363 m dan 0,239 m gacha pasayishi aniqlangan (8-b rasm, 3-grafik). Arrali baraban radiusining 0,35 m dan oshmasligini ta'minlash uchun ajratilgan iplarni baraban tishlari sirti bilan ishqalanish koeffitsiyenti tavsiya etilgan qiymatlari $f = (0,22 \div 0,25)$ oralig'ida bo'lishi lozim.

Dissertatsiyaning **“Trikotaj qiyqimlarini kesish va chimdib titish mashinasining ishlash parametrlarini muqobillash”** deb nomlangan uchinchi bobi trikotaj qiyqimlarini kesish va chimdib titish mashinasining shaylash parametrlarini muqobillash hamda tola tiklash jarayoni tadqiqotiga bag'ishlangan.

Hozirgi paytda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, texnologik jarayonlarni takomillashtirish hamda tayyor mahsulot sifatini yaxshilashga qaratilgan masalalarni hal etishda muqobillash metodlari muhim ahamiyatga ega. Trikotaj qiyqimlarining tolalarga ajralish darajasi chimdib titish mashinasining texnologik rejimlariga bog'liqdir. Shuning uchun “Yeuroazia Alliance Tex” MChJ korxonasida o'rnatilgan “Shandong Shunxing Machinery” firmasining dastlabki chimdib titish mashinasida trikotaj qiyqimlarini qayta ishlab, tiklangan tolalarni olish bo'yicha tajribaviy tadqiqotlar o'tkazildi.

Tajribada chimdib titish mashinasining asosiy texnologik parametrlarining tolalarni ajratish jarayoniga ta'siri o'rganildi hamda tiklangan tolalarning asosiy sifat ko'rsatkichlari aniqlandi. Olingan natijalar asosida tolalarga ajratish jarayonining

samaradorligi baholanib, texnologik parametrlar o'zgarishining jarayon ko'rsatkichlariga ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari asosida nazariy hisoblashlar va tajribaviy ma'lumotlar o'rtasidagi bog'lanishlarning grafiklari qurilib, ularning o'zaro mosligi tahlil qilindi. Olingan natijalar nazariy tadqiqotlarda aniqlangan qonuniyatlarning tajribaviy jihatdan tasdiqlanishini ko'rsatdi (9-rasm).



1-tajribaviy egri chiziq,
2- nazariy egri chiziq.

9- rasm. Qiyqimlardan tiklangan tolalarning shtapel uzunligi a), uzish kuchi b) va tolalarga ajratish samaradorligining v) ta'minlash silindri aylanish chastotasiga bog'liqlik grafigi

Tajribalarni matematik rejalashtirish usuli asosida trikotaj qiyqimlarini tolalarga ajratish jarayoni uchun mashinaning eng maqbul texnologik parametrlari aniqlanib, ta'minlovchi silindrlar diametrlari $d_1 = 77$ mm va $d_2 = 55,7$ mm hamda aylanish chastotalari $n_1 = 0,50$ min^{-1} va $n_2 = 0,55$ min^{-1} qiymatlarida eng yaxshi natijalarga erishildi. Ushbu rejimlarda tiklangan tolalarning shtapel uzunligi 25,6 mm ni, tolalarga ajratish samaradorligi esa 59,2 % ni tashkil etishi aniqlandi.


Shuningdek, trikotaj qiyqimlarini tolalarga ajralish darajasi chimdib titish mashinasi tituvchi barabanining aylanishlar chastotasiga bog'liqligi tajribada o'rganilgan. Ko'p hollarda jarayonga ta'sir etuvchi omillarning bir necha darajasini ko'rib chiqish yetarli bo'ladi. Tadqiqotda kiruvchi omillar sifatida quyidagilar qabul qilingan: X_1 - qiyqimni ta'minlash tezligi, g (m/min); X_2 - tituvchi barabanning aylanish chastotasi, n (min^{-1}).

Tajribalar to'la omilli rejalashtirish usuli asosida 3^2 turdagi tajriba rejasi bo'yicha o'tkazildi. Javob funksiyasi sifatida qiyqimlarni tolalarga ajratish koeffitsiyenti qabul qilindi. Kiruvchi parametrlarning qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan.

Omillarning o'zgarish oralig'i

Kiruvchi omillar	Qiymatlar			O'zgarish oralig'i
	-1	0	+1	
X_1 - qiyqimni ta'minlash tezligi, m/min	0,3	0,6	0,9	0,3
X_2 - tituvchi barabanning aylanish chastotasi, min^{-1}	300	500	700	200

Tajriba natijalari Excel dasturi yordamida qayta ishlanib, ularning tahlili amalga oshirildi. Olingan natijalarga ko'ra, qiyqimlarni tolalarga ajratish koeffitsiyentining maksimal qiymati $\vartheta_{min} - n_{max}$ rejimida kuzatilib, 0,724 ni tashkil etishi aniqlandi (3-tajriba). Qiyqimlarni ta'minlash miqdori ortishi bilan mashinaning unumdorligi oshdi, lekin qiyqimlarning tolalarga ajralish darajasi asta-sekin kamayishi kuzatildi. Bu holat jarayonning umumiy texnologik samaradorligiga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatdi. Qiyqimlarni tolalarga ajratish koeffitsiyentining ta'minlash tezligi hamda tituvchi barabanning aylanish chastotasiga bog'liqlik grafigi 10-rasmda keltirilgan.



10-rasm. Qiyqimlarni tolalarga ajratish koeffitsiyentining qiyqimni ta'minlash tezligi va tituvchi barabanning aylanishlar chastotasiga bog'liqligi grafigi

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida chimdib titish mashinasining qiyqimlarni ta'minlash zonasida nisbatan past tezlikda va tituvchi barabanning optimal aylanish chastotasida ishlashi tolalarning sifatli ajralishini ta'minlanishi aniqlandi. Qiyqimlarni tolalarga ajratishning maksimal koeffitsiyenti $\vartheta_{min} - n_{max}$ rejimida 0,724 ga teng bo'lib, eng samarali qayta ishlashning muqobil texnologik rejimlari $X_1=0,3$ m/min va $X_2=700$ min^{-1} ekanligi tajribada aniqlangan.

Dissertasiyaning "Trikotaj qiyqimlari va chigallangan iplardan tiklangan tolalardan ip yigirish bo'yicha tajribaviy tadqiqotlar" nomli to'rtinchi bobida trikotaj qiyqimlari va chigallangan iplardan tiklangan tolalarni olish, ularni ip yigirishga tayyorlash, pnevmomexanik usulda ip ishlab chiqarish hamda tiklangan

tolalardan ip yigirish texnologiyasini takomillashtirish asosida yillik iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlangan.

Trikotaj qiyqimlari va chigallangan iplardan tiklangan tolalarni olish va ulardan ip yigirish bo'yicha tadqiqot ishlari "Euroazia Alliance Tex" MChJ QK, "Uzyarn House Textile" MChJ va "Uztex Tashkent" MChJ korxonalarining ishlab chiqarish sharoitida olib borilgan. Tajribaning birinchi bosqichida trikotaj qiyqimlari "Eurasia Alliance Tex" MChJ qo'shma korxonasida o'rnatilgan texnologik uskunalarda qayta ishlanib, tiklangan tolalar olingan. Trikotaj qiyqimlarini dastlabki tayyorlash jarayonida ularning samarali titilishini ta'minlash maqsadida QD 350 markali kesuvchi mashinada 40-60 mm uzunlikda kesilgan. Kesilgan trikotaj qiyqimlarini tolalarga ajratish jarayoni chimdib titish mashinasida amalga oshirilgan.

Tajribaning ikkinchi bosqichida chigallangan iplar ham chimdib titish mashinasida qayta ishlanib, tiklangan tolalardan namunalar olingan. Tiklangan tolalarning fizik-mexanik xossa ko'rsatkichlari "Uztex Tashkent" MChJ korxonasi HVI 1000 laboratoriya tizimida aniqlangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, chigallangan iplardan tiklangan tolalarning mikroneyr ko'rsatkichi 4,35; yuqori o'rtacha uzunlik 25,4 mm; uzunlik bo'yicha bir xillik indeksi 77,1 %; solishtirma uzish kuchi 28,6 g/tex; uzilishdagi uzayishi 7,6 %; kalta tolalar miqdori 23,3% va yigiruvchanlik ko'rsatkichi 67% ni tashkil etishi aniqlangan. Tadqiqot natijalari ushbu tolalardan nisbatan katta chiziqiy zichlikdagi iplar ishlab chiqarish mumkinligini ko'rsatdi.

Shuningdek, trikotaj qiyqimlari va chigallangan iplarni qayta ishlash jarayonida chimdib titish mashinasining ish samaradorligini baholash maqsadida tajriba natijalari tahlil qilindi. O'tkazilgan tadqiqotlar asosida takomillashtirilgan chimdib titish mashinasining ish samaradorligi aniqlanib, olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Trikotaj qiyqimlari va chigallangan iplarni tolalarga ajratish jarayonining texnologik samaradorlik ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar nomi	Trikotaj qiyqimlari va chigallangan iplarni tolalarga ajratish samaradorligi, %		
		Trikotaj qiyqimi		Chigallangan iplar
		Korxonada	Tajriba	Tajriba
1	Qiyqim va chigallangan ip uzunligi, mm	-	40-60	40-60
2	Tolali massa tarkibi:			
	- tiklangan tolalar miqdori, %	77,6	89,5	87,6
	- titilmay qolgan iplar miqdori, %	19,7	9,3	12,4
	- titilmay qolgan qiyqim bo'lakchalari miqdori, %	2,7	1,2	-

Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, trikotaj qiyqimlarini qayta ishlash jarayonida olingan tiklangan tolalarning umumiy miqdori 89,5 %, titilmay qolgan iplar 9,3 % va

titilmay qolgan qiyqim bo‘lakchalari 1,2 % ni tashkil etgan. Shuningdek, chigallangan iplarni qayta ishlash natijasida olingan tiklangan tolalar miqdori 87,6 % ni, titilmay qolgan iplar ulushi esa 12,4 % ni tashkil etishi aniqlandi.

Qiyqimlarni titish jarayonidan keyin olinadigan tolalarning muhim xossalaridan biri ularning uzunligidir. Shu sababli tajribada tiklangan tolalarning uzunlik ko‘rsatkichlari aniqlanib, olingan natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

3- jadval

Trikotaj qiyqimlari va chigallangan iplardan tiklangan tolalarning o‘rtacha ko‘rsatkichlari

